



ISTE'MOL BOZORI


(dastlabki ma'lumot)

2018 yil yanvar-may

Chakana savdo tovar aylanmasi (ovqatlanish korxonalarini qo'shgan holda) 2018 yilning yanvar-may oylarida 1922,6 mlrd.so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,6 foizga oshdi.


Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 18,8 foizni tashkil etdi. Yirik korxonalarning o'sish sur'atini o'tgan yilning shu davriga nisbatan 41,4 foizga ko'payishiga olib keldi.

Xorazm viloyati shahar va tumanlar kesimida 2018 yil yanvar-may oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari



Chakana savdo tovar aylanmasi (umumovqatlanish korxonalarini qo'shmaganda) hajmida katta ulushga ega bo'lgan Urganch shahri (36,9 foiz), Xazorasp tumani (13,8 foiz), Urganch tumani (8,5 foiz) ni tashkil qilib chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

**Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar
aylanmasining ulushi, foizda**



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga o'tgan yilga nisbatan 103,8 foizni tashkil qilib, 1063,7 ming. so'mni tashkil etdi (2017 yil yanvar-may oyida 836,2 ming. so'mni tashkil qilgan edi).

O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Urganch shahri (5061,6 ming. so'm), Xazorasp tumani (1108,7 ming. so'm) va Gurlan tumanida (1010,5 ming. so'm) kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 30,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 10,7 foizga oshdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 1,6 foizni tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga chakana
savdo tovar aylanmasi**


Shahar va tumanlar	Ming. so'm	o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Urganch shahar	5061,6	117,8
Xiva shahar	786,8	108,0
Bog'ot tuman	537,9	96,2
Gurlan tuman	1010,5	97,5
Qo'shko'pir tuman	447,0	95,0
Urganch tuman	853,4	94,6
Xazorasp tuman	1108,7	98,9
Xonqa tuman	620,1	94,2
Xiva tuman	264,6	93,2
Shovot tuman	634,1	97,8
Yangiariq tuman	904,0	98,8
Yangibozor tuman	662,7	93,8

O'TGAN DAVRLARDA KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 98,1 foizni tashkil qiladi.

Umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 71,5 foizini tashkil qiladi.

Kichik tadbirkorlik umumiy tovar aylanmasining deyarli 186,0 mlrd. so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 9,7 foizni tashkil etadi.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi
bo'limi

Nashr uchun mas'ul: Sh. Gadaniyazov
(0371) 230-87-68